

SUDGA QADAR JINOYAT ISHI YURITUVIDA MOL-MULKNI XATLASH JARAYONIDA KELIB CHIQUADIGAN AYRIM MASALALAR TAHLILI



Nazarova Laylo Geldimurodovna

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada mulkni xatlash sohasidagi huquqiy munosabatlarning subyekti tarkibi to'g'risidagi masala ko'rib chiqilgan va gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning harakatlari uchun qonuniy javobgar shaxslarning, shuningdek gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning harakatlari uchun qonuniy javobgar bo'lmagan boshqa shaxslarning mol-mulkini xatlash bo'yicha protsessual faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar yuzasidan muallif fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xatlash, tergovchi, surishtiruvchi, ayblanuvchi, zarar, mol-mulk, bayonnoma, dalillar, miqdor.

Аннотация. В статье изложен авторский взгляд на правоотношения, возникающие при производстве процессуальных действий по наложению ареста на имущество подозреваемого, обвиняемого или лиц, виновных в своих действиях, а также подозреваемого, обвиняемого или лиц, не несущих юридическую ответственность за свои действия. Разработаны предложения и рекомендации для заполнения существующих пробелов в уголовно-процессуальном законодательстве.

Ключевые слова: арест на имущество, следователь, дознаватель, обвиняемый, ущерб, имущество, протокол, доказательства, размер

Abstract. The article presents the author's perspective on the legal relations arising during the performance of procedural actions related to the seizure of property belonging to a suspect, an accused person, or individuals responsible for their actions, as well as those not bearing legal liability for such actions. The study also develops proposals and recommendations aimed at filling existing gaps in criminal procedure legislation.

Keywords: property seizure, investigator, inquiry officer, accused, damage, property, protocol, evidence, amount.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual qonunchiligida surishtiruvchi, tergovchi tomonidan xatlanishi kerak bo'lgan mol-mulkning qiymati aniq belgilanmagan. Masalan, Ukraina JPKning 170-moddasida xatlanishi kerak bo'lgan mulkning qiymati fuqaroviy da'voda ko'rsatilgan qiymatga muvofiq bo'lishi shartligi belgilangan, ya'ni shaxsning yetkazilgan zararga teng qiymatdagi mulklari xatlanadi, xolos. Xuddi shu qoida Estoniya, Gruziya Jinoyat-protsessual kodekslarida ham belgilangan.

O'z navbatida, milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda xatlanishi kerak bo'lgan mulkning qiymati ko'rsatilmagani bois surishtiruvchi, tergovchilar shaxsga tegishli barcha mol-mulkni bira to'la xatlaydilar. Bunday tartib bilan kelishib bo'lmaydi, chunki gumon qilinuvchi, ayblanuvchilarga tegishli barcha mulklarga nisbatan band solinishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini faqat og'irlashtiradi. Shu masala yuzasidan turli fikrlar mavjud. Masalan, V.B. Iskandirov o'z tadqiqotida tergov davomida ayblanuvchiga tegishli barcha mulk xatlanishi kerak, degan xulosaga kelgan.

Shuningdek, F.N.Bagautdinov ham shunday mazmundagi fikrni bildirgan [1]. Ular o'z fikrlarini quyidagi vajlar bilan asoslaydilar:

- xatlangan mulk orasida shaxsning oila a'zolari yoki boshqa yaqinlariga tegishli ulush bo'lishi mumkin, buni tergovning dastlabki bosqichlarida aniqlash imkoni bo'lmaydi. Natijada mulkning shaxsga tegishli qismi qiymati qisqarib, bu moddiy zararni qoplashga yetarli bo'lmay qolishi mumkin;

- xatlash jarayonida surishtiruvchi, tergovchi narsa-buyumlarni xatlashda xatoliklarga yo'q qo'yishi mumkin: narxi baland yoki past baholanadi, buyumning eskirganlik darajasi to'g'ri aniqlanmaydi (odatda, bu xatolik xatlash jarayonida mutaxassis ishtirok etmagan hollarda uchraydi). Shuni ta'kidlash kerakki, kichik qiymatdagi predmetlarni xatlash jarayonida surishtiruvchi, tergovchilar mutaxassis ishtirokiga ehtiyoj sezmaydilar va o'z qarashlaridan kelib chiqib baholashadi;

- xatlash payti surishtiruvchi, tergovchiga yetkazilgan zararning aniq miqdori ma'lum bo'lmashligi mumkin. Tergov davomida miqdor o'zgarish ehtimoli mavjud, ko'proq oshishi mumkin;

- hukmning ijrosini ta'minlash vaqtiga kelib, xatlangan ba'zi narsa-buyumlar o'z sifatini yo'qotishi mumkin. Bu esa ularning moddiy qiymati xatlangan paytdagidan sezilarli darajada tushishiga olib keladi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni xatlash tartibi jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bank va boshqa kredit tashkilotlarining hisob raqamida bo'lgan pul mablag'larini xatlash uni amalga oshirayotgan mansabdor shaxsdan huquqning turli sohalarini bo'yicha alohida bilimlarni ham talab qiladi. Mol-mulkni xatlash bo'yicha protsessual hujjatning ijrosini ta'minlash bir qator xatti-harakatlarni bajarishni talab etib, ular kuch va vositalar sarfxarajati bilan bog'liq. Bundan hollarda soha bo'yicha bilimga ega mutaxassisning ishtirokiga zarurat paydo bo'ladi.

Shuning uchun qimmatli qog'ozlar va ularning sertifikatlarini xatlash jarayonida mutaxassis ishtirokining shartligini belgilash, maqsadga muvofiq. Milliy protsessual qonunchiligimizda mutaxassis yoki baholovchi tashkilotning faqat

zarur hollardagina ishtirokini ta'minlash kerakligi nazarda tutilgan. Ammo, tergov amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xatlashda mutaxassisning ishtirok etishi ushbu faoliyat samaradorligi oshishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Mutaxassisning ishtirok etishi xatlashga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va natijalarni qabul qilib olib, ularni rasmiylashtirishda texnika va ilm-fanning yutuqlaridan foydalanishda samara beradi. M.V.Sokolovanning fikriga ko'ra [2], xatlash jarayonida surishtiruvchi, tergovchilar mutaxassisning ishtirokini ta'minlashi shart. Jumladan, A.A.Petrikina ham xatlashda narsa-buyumlarni qidirib topish, ularni protsessual tartibda mustahkamlash va olib qo'yishda, texnik vositalardan foydalanishda tergovchi, surishtiruvchilarga albatta maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslarning yordami kerak bo'lishini bildirib, mutaxassislar ishtirokni majburiy deb belgilash kerakligini aytgan [3].

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual qonunchiligimizda xatlash mumkin bo'lmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining mol-mulkli ro'yxati [4] ham mavjud bo'lib, sudlanuvchi va fuqaroviy javobgar oilasining normal yashashi uchun kerakli uy-joy, kvartira, uy anjomlari va jihozlari, kiyim va buyumlar xatlanishi mumkin emas. Bunda shu narsani inobatga olish kerakki, xatlash mumkin bo'lmagan uy-joy jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan mablag' hisobidan sotib olingan bo'lishi ham mumkin. Aynan shu masala qonunchiligimizda ochiq qolgan.

Ba'zi olimlar [4] agar jinoiy daromad evaziga olingan mol-mulk va undan ko'rilgan foyda qonuniy yo'l bilan topilgan mol-mulkning tarkibiy qismi bo'lsa, mazkur mulkdagi noqonuniy ulush baholanib, o'sha qismi musodara qilinishi, shuningdek, ularning fikriga ko'ra, bu holatda uchinchi shaxslar tasarrufiga o'tib ketgan mol-mulkni musodara qilishda mazkur insofli egallovchilar o'zlari sotib olayotgan mulkning jinoiy yo'l bilan topilganligini bilgan yoki bilgan bo'lishi shart ekanligi aniqlanishi kerak.

Jinoyat ishlari yurituvda fuqaroviy da'vo kiritilishidan oldin yoki da'vo qo'zg'atilgandan keyin mol-mulkni xatlash vaqti masalasi ham protsessualist olimlar o'rtasida doimiy muhokama mavzularidan biri sanaladi. JPKning 290-moddasida ashyoviy dalillarning o'zlashtirilishi, xarj

qilib yuborilishi, yashirilishi, yo'q qilib tashlanishi yoki shikastlantirilishidan saqlash uchun ham mol-mulk xatlanadi. Mazkur norma mazmunidan anglashiladiki, dastlab moddiy qimmatliklarga ega narsa-buyum yoki mulk ashyoviy dalil deb topilishi va keyin xatlanishi kerak.

Bundan tashqari, fuqaroviy da'vogarning tergov organlariga bergan arizasi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, fuqaroviy javobgarining mol-mulkni xatlash uchun asos bo'lishi kerakmi yoki xatlash uchun fuqaroviy da'vogarning arizasi bo'lishi shart emasmi, kabi savollar yuzasidan protsessulist olimlar o'z tahlillari natijasida turli xulosalarga kelishgan.


Jumladan, K.B. Samandarovning fikriga ko'ra, jinoyat ishida mol-mulk ro'yxatining yo'qligi mulkiy zararni qoplash to'g'risidagi masalani ko'rmasdan qoldirishga asos bo'la olmaydi, sababi bunday mol-mulk hukm ijrosi jarayonida ham aniqlanishi mumkin. M.V. Sokolova, O.L. Podustova tergov organlari tomonidan sudga taqdim etilgan iltimosnomaga ilova qilingan hujjatlar orasida fuqaroviy da'voning mavjud bo'lmasligi sud tomonidan iltimosnomani rad qilish uchun asos bo'lmasligi kerak [5], degan fikrni bildirishgan. Mazkur olimlar bunday xulosaga kelishlarini fuqaroviy da'vo jinoyat ishi qo'zg'atilgan vaqtdan boshlab, to u bo'yicha birinchi instansiya sudida o'tkaziladigan sud tergovi tamomlangunga qadar berilishi mumkinligi bilan izohlashadi. Amaldagi qonunchiligimizda esa xatlash muddatini belgilash masalasi nazarda tutilmagan. Bizningcha, mol-mulkni xatlash uchun fuqaroviy da'vogar tomonidan da'vo berilishining kutilishi jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning huquqlari buzilishiga olib keladi.

Fuqaroviy da'voni ta'minlashda mol-mulkni xatlash uchun da'vogar tomonidan da'vo qo'zg'atilgan bo'lishi shart emas. Bu qoida surishtiruvchi, tergovchilar uchun majburiy bo'lishi kerak. Chunki o'z vaqtida yoki zudlik bilan xatlash choralarining ko'rilmaligi fuqaroviy javobgarlar tomonidan o'z mulklarini yashirish imkoniyatini kengaytiradi. Mol-mulkni xatlashdan ham asosiy ko'zlangan maqsad fuqaroviy javobgarga tegishli mulkning sotib yuborilishi, hadya qilinishi kabi o'zidan begonalashtirilishining oldini olishga qaratilgan. Shuning uchun ham surishtiruvchi, tergovchilar jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy

ziyonni qoplash uchun mustaqil ravishda fuqaroviy da'vo qo'zg'ata olishlari va bu O'zbekiston Respublikasi JPKning 276-moddasi 1-qismida o'z aksini topishi kerak.

Bundan tashqari, xatlash muddati tartibga solinishi kerak bo'lgan yana bir masala – bu amalda gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga tegishli, lekin uchinchi shaxslar mulk huquqida bo'lgan mol-mulk. Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda mazkur toifa shaxslarga protsessual maqom berilmagan, ularning huquq va majburiyatlari ishlab chiqilmagan. Natijada zarurat bo'lmaganda ham ushbu shaxslarning mol-mulki uzoq muddatga xatlanmoqda. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslar, tadbirkorlik subyektlari hamda jismoniy shaxslar uchun yetarlicha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Sud o'z ajrimida shaxsning o'z mulkiga nisbatan aynan qaysi huquqi yo'qolishini ko'rsatishi kerak: egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish. Shu bilan birga, ushbu mol-mulkning xatlovda bo'lish muddatini ham ko'rsatish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bir necha yillar davom etadigan ko'p epizodli yoki to'xtatib qo'yilgan jinoyat ishlarida muddat masalasi juda muhim. Lekin, barcha jinoyat ishlariga bir xil muddat belgilanishi maqsadga muvofiq emas. Bu masalada oldindan belgilab qo'yiladigan emas, oqilona muddat o'rnatilishi kerak. Chunki, jinoyat ishi holatlari, ishning huquqiy va faktik murakkabligi, protsess ishtirokchilarining xulq-atvori, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sudlarning bu masaladagi faoliyati samaradorligi, jabrlanuvchilar soni, yetkazilgan zarar miqdori kabi omillar aniq muddat belgilanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.



Foydalanilgan manbalar

1. Искандиров В.Б. Наложение ареста на имущества а уголовном процессе: Дис. ... канд. юрид. наук. – Челябинск, 2012, – С 131. <https://www.dissercat.com/content/nalozhenie-aresta-na-imushchestvo-v-ugolovnom-protsesse>.
2. Соколова М. В. Особенности использования специальных знаний при наложении ареста на имущество // Криминалистика и судебно-экспертная деятельность в условиях современности: Материалы IV международной научно-практической конференции. – Краснодар, 2016. – С. 403–406. – EDN XRELWH. https://elibrary.ru/download/elibrary_28111856_44156167.pdf
3. Петрикина А. А. Формы использования специальных знаний при наложении ареста на имущество в уголовном процессе РФ. Уголовно-правовые, уголовно-процессуальные и криминалистические вопросы борьбы с преступностью : Сборник научных трудов по материалам 4-й Всероссийской научно-практической конференции. – Краснодар, 2018. – С. 90–94. – EDN OECNLX. https://elibrary.ru/download/elibrary_43032393_17486855.pdf
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-apreldagi 110-son qarori bilan tasdiqlangan «Qarzdor va uning oilasining normal turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan, ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan uy anjomlari va jihozlari, kiyimlar hamda boshqa buyumlar ro'yxati». <https://lex.uz/acts/111460>
5. Юткина С. М., Ростовщикова О. В. О наложении ареста на имущество как мере уголовно-процессуального принуждения: история, теория, практика //Вестник Волгоградской академии МВД России. – 2012. – №. 4 (23). – С. 144-156.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-nalozhenii-aresta-na-imuschestvo-kak-mere-ugolovno-protsessualnogo-prinuzhdeniya-istoriya-teoriya-praktika>

